

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI  
SHAKLLANTIRISHDA O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN  
FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI**

Xo'shboq Norbo'tayev Bobonazarovich,  
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Dilshod Suyunov Abdullayevich  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasи o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O'rtta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanish, bilimlarni o'zlashtirishning ahamiyati, tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda ekologik mazmunidagi bilimlarni takomillashtirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, shuningdek, umumta'lim maktabi o'quv rejalarini va dasturlariga tabiat-jamiyat o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatlarni fanlararo aloqadorlikda o'rnatish masalalari, o'quvchilarning ekologik tafakkuri, ularning dunyoqarashi, hatti-harakati, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O'rtta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanish jarayoni, o'qitishda atrof-muhit muhofazasi, o'qitish metodlari, vositalari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid ijobiy munosabatlari va qarashlari va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi ilmiy manbalarni singdirish jihatlari keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** tabiiy resurs, boshlang'ich sinf, tabiiy fanlar, ekologik muhit, tugaydigan va tugamaydigan resurs, ta'lim, ehtiyoj, shakl, metod, vosita, ekologik madaniyat, foydalanish, meros, manba, o'qitish, Tabiat, munosabat, tushuntirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlarga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashi lozim. Ushbu malakalar ekologik tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatni bilishlari, ekologik bilim, ekologik tafakkur, inson faoliyati va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi ilmiy manbalar boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy o'quv fanlari negizida beriladi. Shuningdek, inson yashashi uchun havo, suv, quyosh qanday kerak bo'lsa, o'simlik va hayvonlar ham shunday kerakligi, ular o'rtasidagi tabiiy bog'liqliklar olib berilgan[1].

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar bo'yicha darslarni tashkil etishda tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga insonning kuchli antropogen ta'siri tufayli ekologik muammolar vujudga kelayotganligi, sanoat mahsulotlaridan atmosferaning ifloslanishi ekologik muammolarni vujudga keltirganligi, er

yuzida ekologik tang vaziyatli hududlarning keskin ko‘payishi, global ekologik inqiroz havfining real ekanligini o‘quvchilarga tushuntirish lozim[3].

O‘quvchilar tushunishlari lozimki, tabiatni muhofaza qilish hozirgi va kelgusi avlodning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni saqlashdan iborat. Shu jihatdan o‘quvchilarga ekologiya va ekologik tushunchalar haqida ma’lumot beriladi.

Xususan, ekologiya hayot jarayonlarini o‘ziga xos metodlarda tadqiq qiladigan mustaqil fan hisoblanadi. Ekologiyaning ijtimoiy hayot bilan bevosita bog‘langan tarmoqlari ham rivojlanmoqda. Shu bilan birgalikda turli fanlardan ekologik muammolar jihatlari o‘rganiladi. “Ekologiya” tirik organizmlarning (har qanday ko‘rinishdagi, barcha darajada uyg‘unlashgan) hayot faoliyati qonuniyatlarini ular hayotida kechadigan tabiiy muhitning inson omili ta’sirida yuzaga keladigan holatni o‘rganadigan fandir.

Shunday ekan, tabiat qonunlarining muvozanatini buzmaslik kerak. Demak, yoshlarga, kelajak avlodga bolalikdan tabiatga mehr-muruvvatli bo‘lish tuyg‘ularini singdirib borish lozim.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodda atrof- muhitga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ekologik tushunchalar o‘quvchilarni tabiatni asrab-avaylashga, uni sevishga, unga oqilona munosabatda bo‘lishga, o‘z maktabi, o‘zi yashab turgan oilasi, mahallasi, qishloq va shahrini ozoda saqlashga, uni ko‘kalamzorlashtirishga, mevali bog‘lar yaratishda o‘z hissalarini qo‘sishsga, hayvonot dunyosiga g‘amxo‘rlik qilishga, qo‘ying-ki, er, suv, havoning musaffoligiga erishish misolida atrof-muhitni, butun nabotat dunyosini e’zozlashga qaratilgan[10].

Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarga ekologik ta’lim-tarbiyani berish bilan birga uning ekologik madaniyatini shakllantirishni ham taqozo etadi. Ekologik tushuncha yosh avloddan, umuman, insondan tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish bilan birga vaziyatni sog‘lomlashtirish, ekologik havfsizlikni ta’minalashni, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarga oid milliy va umumbashariy tajribalarni o‘rganishni va hayotga tadbiq qilishni, tabiatning yanada go‘zallahuvi, gullab-yashnashi uchun hissa qo‘sishini taqozo etadi. Bu faoliyat debochasi esa bolalikdan boshlanadi.

Boshlangich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish uzliksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ekologik bilimlarni o‘rganishga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Mazkur jarayonda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid qarashlaridan foydalanishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ekologik bilimlarni O‘rta Osiyo mutafakkirlarining bu boradagi meroslari asosida o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish;

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik mazmundagi hikoya, o'git, nasihat, hamda ilmiy xulosalari bilan tanishish asosida ularning boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy bilimlarni berish borasidagi imkoniyatlarini aniqlash;

boshlang'ich sinflarda "Tabiiy fanlar" o'quv dasturi, darsliklar va o'quv rejalarini o'rganish jarayonida uning mazmun mohiyatiga ko'ra O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari bilan o'quvchilarni tanishtirish uchun maqbul mavzularni belgilash;

tabiiy fanlarni o'qitishda O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid g'oyalaridan uzluksiz, izchil va tizimli foydalanishga erishish;

tabiiy fanlarni o'qitishda O'rta Osiyo mutafakkirlarning ekologiyaga oid meroslaridan foydalanishga qaratilgan didaktik jarayonni samarali shakl, metod va vositalar asosida tashkil etish loyihalarni ishlab chiqish hamda amaliyatga tatbiq etish[9].

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida muhim o'rin tutadi. Shu sababli tadqiqot ishini olib borish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan tabiiy fanlarni o'qitishda O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslaridan foydalanish darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqildi:

boshlang'ich sinf o'quvchilari O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslari majmui to'g'risida etarli ma'lumotlarga egaliklari;

ularning tabiiy fanlar bo'yicha tegishli mavzularni belgilash asosida o'quv materiallari mazmuniga O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslarini singdira olishlari;

boshlang'ich sinf o'quvchilari O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslariga oid bilimlardan xabardorliklari [4].

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'rganilayotgan mavzu mazmuniga muvofiq holda O'rta Osiyo mutafakkirlari meroslaridan foydalanish o'quvchilarda ekologik tushunchalarni tizimli va to'laqonli tarkib toptiradi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga ekologik ta'lim- tarbiya berish jarayoni umumiyligi holda, mакtabda o'qitiladigan barcha o'quv fanlarining ekologiyaga oid mazmuni imkoniyatlariga bog'liq mavzular mohiyatiga tayangan holda, ikki yo'nalishda olib borilishi maqsadga muvofiq[12].

Ekologik muammolarning tavsifiga ko'ra boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologiyani o'qitishning o'quv jarayonidagi tuzilishiga mos mantiqiy tabaqlanish bosqichlarini ifodalash mumkin. Yuqorida ekologik muammolarning insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti mahsuli ekanligi va muammolarni bartaraf qilishga oid o'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (ekologik ta'lim-tarbiya) bilan bog'liq ekologik bilimlarni berish bosqichlarining pedagogik jihatdan asoslangan taxminiy tuzilishi, mazmuni va ketma-ketligi keltirildi[5].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslari bilan tanishtirishning pedagogik shart- sharoitlari muammosi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda, umumiyligi holda qisman o'z ifodasini topgan, chunki boshlang'ich sinf

o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirish hozirgi ijtimoiy vaziyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda[7].

Mavjud tadqiqot ishlari bilan tanishish shundan dalolat beradiki, O‘rtal Osiyo mutafakkirlari o‘z asarlarida yoshlarga ekologik mazmundagi fikrlarni singdirishga katta o‘rin bergen. Ular yashagan o‘rta asrda ham tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar doimiy sur’atda kun tartibida bo‘lgan. Mutafakkirlarninig ekologik qarashlarida er, suv, havo va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular o‘quvchilarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lgan.

O‘rtal Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid fikrlarini o‘quvchilarga singdirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, shuningdek, milliy dunyoqarashning shakllanishiga ham erishiladi. Tadqiqotni olib borish jarayonida O‘rtal Osiyo mutafakkirlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan samarali qabul qilinishi mumkin bo‘lgan ekologiyaga oid meroslaridan iborat majmuuning shakllantirilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida o‘zbek xalqining avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ekologik ta’lim-tarbiyasi tahsinga sazovordir. Bu davrlarda ajdodlarimiz farzandlariga oilada tug‘ilgandan boshlab tejamkorlik xislatlarini, uvol qilmaslik xususiyatlarini hamda tabiat unsurlari bo‘lmish suv, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosidan faqat samarali foydalanishni o‘rgatishar, ongiga singdirishar edi. Ekologik ta’lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirishda mazkur jarayonga milliy qadriyatlar g‘oyalari, shu jumladan, O‘rtal osiyo mutafakkirlarining ekologik meroslarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi[2].

G‘arb va Sharq mutafakkirlari hamda dunyoqarashidagi tafovutlarning shakllanishi kishilik sivilizatsiyasi taraqqiyotiga borib taqaladi va bir-biriga zidligi haqida mulohaza yuritish mumkin. G‘arb insonlari ilohiy ijod harakatlarini davom ettirib, o‘zlarini tabiatning maxsus ma’naviylashgan qismi sifatida e’tirof etgan holda, atrofdagi olamni o‘zgartirishga va uning insonga bo‘ysundirilishiga doimiy harakatda bo‘lib, tabiiy jarayonlarga maksimal darajada aralashgan holda ta’sir o‘tkazib kelishga harakat qilingan. Sharqda tabiat va inson munosabati ratsional va axloq normalariga bo‘ysundirilgan bo‘lib “Ona tabiat” degan nom bilan ulug‘langan va qadriyat sifatida baholangan.

Xususan, Hindlarning “Mahobxarat”, Xitoyning “Konfutsiy” ta’limoti, Markaziy Osiyoning qadimiy manbasi “Avesto”, islom olamining muqqaddas kitobi “Qur’oni Karim”da, Imom Buxoriy, at-Termiziyy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Abu ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Yassaviy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy va boshqa qator allomalarining ilmiy ijodi va asarlarida tabiat insoniyatni eng oliy manbasi sifatida ulug‘lanib, uni qadrlash, avaylab-asrash, yashash va tiriklik asosi, sog‘lom turmush va fikr, yashnash va yosharishning manbai sifatida e’tirof etishgan.

Bir so‘z bilan aytganda tabiat bilan muloqotda axloq normalariga tayangan holda yondashuvni tавсиya etган. Sharq madaniyatida tabiat qiymati inson qadriyatidan ustun turadi. Insonning ichki va tashqi faoliyati tabiatga moslashishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘z-o‘zini tarbiyalash, irodasini boshqarish, emotsiyalarga berilmaslik, oqillik va donolikni tafakkur etish va o‘zini tutishga qaratilgan. Inson bu erda uning tabiatdan ajratilgan maxsus komponenti sifatida qabul qilinmaydi, aksincha uning bir bo‘lagi va rivojlantiruvchi omil sifatida singdirilgan.

Keyingi, bosqichda qishloq xo‘jaligining asta-sekinlik bilan o‘sishi, hunarmandchilikning rivojlanishi, oddiy tovar ishlab chiqarishining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan holda, sanoat inqilobining ilmiy-texnik taraqqiyoti, texnogen sivilizatsiyaning bosqichma-bosqich shakllanishi oqibatida insonning texnikaviy tafakkur kuchi tabiat kuchlaridan ustun kelishga olib kelgan holda ushbu taraqqiyot natijasi o‘laroq inson o‘zini - o‘zi yo‘q qilish jarayoniga ham yo‘l ochdi.

Mazkur jarayonlarning oldini olish maqsadida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanish va amalga oshirishning tashkiliy va ilmiy-uslubiy jihatlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalariga muvofiq tarzda ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Dunyoga kelib farzand ko‘rish, imorat qurish, nihol ekib bog‘ yaratish, otabobolarimizdan qolgan nasliy an’ana, ezgu tilak va qutlug‘ insoniy burchdir. Shuni alohida shukronalik bilan ta’kidlash lozimki, xalqimiz tarixning mashaqqatli sinovlari osha o‘zining ana shu olivjanob xislat-fazilatli an’analariga zavol etkazmay saqlab kelmoqda. Ajdod-avlodlarimiz o‘z nasllarini umumbashariy tuyg‘ular, o‘lmas Sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar.

Insonning kuch va qobiliyatlarini tahlil etganda, u uchgа bo‘linadi: jismoniy, aqliy va axloqiy. Shunga binoan, insonning bu kuch-qobiliyatlarining taraqqiysi, yuksalishini ta’min etadigan tarbiya ham uch qismga ajraladi, bular badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, axloq tarbiyasidir.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning mohiyati, g‘oyaviy mazmuni, uning qonuniyatları, samaradorlik shartları, ekologik ta’lim-tarbiya mezonining falsafiy va madaniy kontekstini samaradorlik omillari orqali ishlab chiqish kun tartibidagi masalalardan biri bo‘lib qolmoqda[6].

Ekologik ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuv tizimi joriy etilsa, insoniyat tabiat, atrof-muhit va kosmos bilan ob’ektiv zarur darajadagi aloqadorlikka erishish va o‘zaro uyg‘unlikni shakllantirish mumkin. Tabiat bilan uyg‘un yashash, inson uning bir bo‘lagi, degan tushuncha va gumanistik g‘oyalarni singdiruvchi ta’limning dasturiy tizimi bugungi kunda o‘zini oqlamayotgandek, nazarimizda. Tabiiy resurslar haqidagi noto‘g‘ri tushunchalarning paydo bo‘lganligi, tugab - bitmas manba degan yondashuvni ustunlik qilishi va tabiiy elementlarning odamga xayolan bo‘ysundirishga bo‘lgan intilishning

hali ham barham topmaganligi ekologik muvozanatni buzishga, ekotizimlarni yo‘q qilishga asos bo‘lib qolmoqda. Biror kishining ekologik ongni shakllantirish uchun, insonning qarashlari va g‘oyalarini butunlay qayta qurish zarur, chunki u o‘zlashtirgan ekologik me’yorlar bir vaqtning o‘zida uning tabiatga nisbatan xatti-harakatlarining me’yorlariga aylanadi[11].

Albatta bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishga turtki beradi. Ushbu ong bilimlarni mantiqiy qayta ishslash asosida o‘sadi, bilimlarning e’tiqodga aylanishi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ekologik ta’lim-tarbiya darajasining o‘sishi o‘z-o‘zidan yuqori ekologik ongni keltirib chiqarmaydi, chunki olingen bilimlardan kelib chiqadigan impulslarni shaxsiy salbiy fazilatlar: passivlik, befarqlik, mas’uliyatsizlik, zaiflik keltirishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarining atrof-muhit va tabiat bilan o‘zaro munosabatlarini, psixologik jihatlarini o‘rganib, ekologik muammolarni hal qilish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq masalalarni emas, balki o‘quvchilarining xulq-atvorini o‘zgartirishga e’tibor qaratish lozimdir. Ta’bir joiz bo‘lsa aytish mumkinki, ekologik inqiroz insonning yangi haqiqatga yomon moslashishi natijasidir.

Ammo o‘quvchi yoshlarning bu masaladagi qarashlarini o‘zgartirishdan oldin, uni ijtimoiy-psixologik faktorlarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish zarur. Bu muammoni echish ekopsixologiya va ekologik ong masalasiga jiddiy e’tibor qaratishimizni taqozo etadi. Atrof-muhitda mas’uliyatli harakat qilish istagi va qobiliyati o‘qituvchilardan o‘quvchi shaxsini shakllanishiga, uning ehtiyojlari va motivlariga e’tibor berishni talab qiladi. O‘z navbatida o‘quvchi shaxsini shakllantirish yangicha dunyoqarash, mustahkam e’tiqod, zamonaviy ideallar, qiziqishlar, moyillik hamda milliy qadriyatga vorislik hissini yuzaga keltirish va mustahkamlash asosida amalga oshadi. Bu jarayonlar har ikki tomonidan ham barcha faoliyat turini ongga bo‘ysundirilganligini taqozo etadi.

O‘quvchilarda ekotizim ob’ektlari bilan hissiy munosabatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sodir bo‘lishi ya’ni, ularning idrokida aks etishini ichki sezgi orqali namoyon bo‘lish tizimini vujudga keltirish lozim. Bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish, idrok etish va o‘zini o‘zi boshqarish funksiyasini belgilab beradi:

tajribani o‘zlashtirish funksiyasi, jamiyat manfaati uchun, umuman insoniyatga tegishli bo‘lgan barcha narsaning har bir kishi unga berilgan imkoniyat deb qarashi;

idrok etish funksiyasi, dunyonи ongli aks ettirish, tashqi ma’lumotlar oqimini individualligini mos ravishda tartibga solish, unga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqish;

o‘z-o‘zini boshqarish funksiyasi, shaxsni jamiyatdagи katta va kichik guruhlar va atrof-muhit bilan umumiyl birlik tizimi asosida bog‘lash istagi hamda tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish qobiliyatini qaror toptirish[18].

Ushbu masala yuzasidan o‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda atrof-muhitga bo‘lgan munosabatning ijobiy sifatlarini qaror toptirish va mustahkamlashning ijtimoiy-pedagogik asoslarini o‘rganayotganda, barcha tirik mavjudotlarga nisbatan insonparvarlik yondashuvi tizimini shakllantirish jarayonining samaradorligi o‘quvchilar tomonidan hayotiy tajribalarini o‘zlashtirish, dunyoga hissiy munosabati, ijodiy tajriba, tabiat bilan munosabat amaliyoti, bu munosabat normalarini o‘zlashtirish unda ijtimoiylashuv bilan bir qatorda shaxs sifatida shakllanishi va individual munosabatni yuz berishiga olib keladi [8].

Darhaqiqat, ekologiya deganda biz organizmlarning atrof-muhit bilan aloqasi haqidagi fanni tushunamiz va bu erda biz mavjudlikning barcha shartlarini so‘zning keng ma’nosida nazarda tutamiz. Ular qisman organik va qisman noorganik tabiatdir.

Ushbu konseptual yondashuv asosida olib borilgan ishlar tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarni qo‘srimcha ekologik ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi muammolarini klassifikatsiyalash mumkin: ilmiy-uslubiy, tashkiliy va boshqaruv, prosessual va texnologik[17]. Mavjud yondashuvlarni ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish o‘quvchilarda qo‘srimcha ekologik ta’lim-tarbiya berish jarayonida aniqlangan dolzarb muammolarni bartaraf etishning quyidagi usullarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda atrof-muhitni muhofaza qilishning barcha xilma-xil jihatlaridan, ya’ni ekologik to‘garaklar, qo‘srimcha mashg‘ulotlar, maxsus jihozlangan ma’ruza zallari, innovatsion darslar, atrof-muhitni zmonaviy texnologiyalar orqali loyihalash, o‘quvchilar jamoatchiligining ekologik monitoringi va nazoratini tashkil etish;

o‘quvchilarga keng qamrovli ekologik ta’lim-trbiya berishning ustuvor yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash, har bir tadbirda ilmiy-nazariy va amaliy faoliyat elementlarini uyg‘unligini ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha tadbirlar zaif ta’lim komponentilaridan xoli bo‘lgan holda, ishtirokchi o‘quvchilar emotsional holatiga ijobiy ta’sirini oshirish;

xalq ta’lim muassasalarining dasturiy va uslubiy ta’mnoti zamon talablari darajasida ishlab chiqilmaganligi, dars ishlanmalari va o‘qitish usullarining zamonaviy ta’lim texnologiyalariga mos kelmasli bilan bog‘liq muammolarni hal qilish hamda DTS va Milliy o‘quv dasturi talablariga javob beradigan umumiy ta’limning ekologik o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

o‘quvchilarning atrof-muhit va ekologik tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirish va bu boradagi ilmiy-amaliy loyihalarda ishtirokini ta’minlagan holda, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va tajribalarni egallah uchun zarur bo‘lgan barcha omillardan maqsadli foydalanish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda umumta’lim maktablarida olib borlayotgan dasturiy va qo‘srimcha ta’limni tashkil etish yuzasidan mavjud nomuvofiqligini bartaraf etish, bugungi kun talablaridan kelib chiqib, bu jarayonni muvofiqlashtirishning optimal variantini ishlab chiqish[16];

jamiyatda ekologik ta’lim-tarbiyani tashkil etishning ijtimoiy sherkchilik asosida xalq ta’limi muassasalari qoshida amaliy yordam va metodik qo’llab-quvvatlash bilan shug‘ullanadigan muvofiqlashtiruvchi hududiy markazni tashkil etish;

hududiy ekotizimni barqarorlashtirishga xizmat qiladigan ekologik loyihamalarini ishlab chiqish va amalgal oshirish jarayonida iqtidorli o‘quvchilarni jalb etish hamda mavjud tabiiy resurslaridan maqsadli foydalanish yuzasidan dasturlarini davlat va jamiyat manfaatidan kelib chiqqan holda yoshlari ongi va tafakkuriga mos holda yaratish[15];

hududiy ekologik dasturlar doirasida amaliy ekologik tadqiqotlar o‘tkazish uchun ta’lim muassasalarining instrumental-analitik, uslubiy, moddiy-texnik bazasini yaratish va rivojlantirish masalalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslari mazmuni bilan tanishish ularning boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ulardan qay darajada xabardorliklari hamda dars jarayonida ularni qo’llay olishlariga bog‘liqdir[14].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda, motivasiya va ijodiy faoliyat orqali ularning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, shuningdek, tabiat hodisalari o‘rtasida sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish, tabiatni his qilish qobiliyatini rivojlantirish, ekologik bilimlarni shakllantirish, va bonyodkorlik hissini qaror toptirish, atrofdagi narsa va hodisalar o‘zgarishlarini tahlil qilish, hamda tabiiy hodisalarni tahlil qilish va oqibatlarini umumlashtirishdan iborat [13].

Atrof-muhitni rivojlantirish samaradorligini oshirish texnologiyalaridan biri bu kognitiv materialni to‘g‘ri tanlay olishi va amaliyatda qo’llashdir. Ishning ta’lim - tarbiya bilan bog‘liqligi hamda ishlab chiqarish sohasidan farqlanuvchi jihatini hisobga olgan holda asoslash mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslarini o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatni avaylab asrash, tabiiy resurslarni kelajak avlodlarga etkazish zarurligi haqidagi tushunchalar shakllanadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Алиқулов А., Низомов Ф. Алишер Навоий асарларида табиатнинг эъзозланиши хақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.- 1994.- 1-2-сонлар. - Б. 38 - 42.
2. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. -Тошкент: Фан, 1990. - Б. 172.
3. Авезов Ш. Мактабда экологик тарбия. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992.- 62 б.
4. Бухорий С. С. Буюк Хоразмийлар. - Т.: Ёзувчи. 1994. – 336 б.
5. Бўриев М. Ёшларда табиатни муҳофаза қилиш ҳиссини тарбиялаш //Халқ таълими ж., 1992. 2-сон. -12-14 б.
6. Валихонов М.Н. Табиатшунослик асослари. - Т.: Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети. 2004.- 243 б
7. Зиёмуҳаммадов Б. Экология ва маънавият. - Т.: Мехнат, 1997.- 1046.
8. Ишмуҳаммедов Р., Йўлдашев М. Таълим ва тарбияда инноватсия педагогик технологиялар (таълим тизими, методистлар, ўқитувчилар, тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув қўлланма)-Т.: 2013.-206.
9. Kamolxo‘jayev Sh.M. Tabiatshunoslik asoslari. - T.: Moliya, 2002.- 332 b.
- 10.Narbutaev H.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308 -5581 Vol 14, Issue 07 2022.
- 11.Norbutayev Kh.B. Raising the ecological culture of the student inteaching biology in connection with other disciplines. Of publication with Impact Factor. International Cientific Journal ISJ Theoretical & Applie Science hiladelphia, USA issue 06, volume 86 published June. - 30, 2020. -P.714 -717.
- 12.Suyunov D.A. Methodology of using the heritage of central asian thinkers in the formation of ecological thinking in primary education. Scholar Express Journals Level 8, Linkstrabe 2 Potsdamer PlatzBerlin 10785,Volume 5, 2021 Volume5, 2021. Germany. -P.131-134.
- 13.Suyunov D.A. Improving the use of the heritage of central asian thinkers in forming ecological thinking in primary school students. Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565 volume 3, issue 3, March - 2022 -P.159-165.
- 14.Samadova, V. (2022). SIMILE IS ONE OF THE OLDEST FORM OF A SPEECH. Science and innovation in the education system, 1(4), 82-83.
- 15.Samadova, V. (2022). SIMILE IS A TYPE OF METAPHOR. Science and innovation in the education system, 1(4), 84-86.
- 16.Samadova, V. (2022). SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN METAPHOR AND SIMILES IN ENGLISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(4), 258-260.

- 
17. Ashurkulovna AZ. ADVERTING TEXTS AND THEIR PHONETIC FEATURES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022 May 26;3(5):1248-55.
18. Ashurkulovna, A. Z. (2022). ADVERTISING TEXTS AND THE LANGUAGE OF ADVERTISING TEXTS.